

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR TOIFALARI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti o'qituvchisi

Turdiyeva Izzatoy Sadikovna

Alimardonova E'zozxon Isroil qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiya olishlari uchun yaratilayotgan sharoitlar, olib borilayotgan ishlar va amalga oshirilayotgan dasturlar haqida so'z yuritiladi. Jumaladan, inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, qonunchilik hujjatlari, qabul qilingan qaror va dasturlar ko'rib chiqilgan. Maqolada mazkur yo'nalishda uchrayotgan asosiy muammolar, amaliyotdagi kamchiliklar va ularda bartaraf etish bo'yicha takliflar ham tahlil qilingan. SHuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatda o'z o'rnini topishi va ularning huquqlarini himoya qilish borasidagi xalqaro tajriba va milliy huquqiy asoslar ham o'rganilgan.

Abstract: This article talks about the conditions created for the education of children with disabilities, the work being done and the programs being implemented. In particular, measures aimed at the development of inclusive education, legislative documents, adopted decisions and programs were reviewed. The article also analyzes the main problems encountered in this direction, shortcomings in practice and proposals for their elimination. In addition, the international experience and national legal frameworks of disabled children finding their place in society and protecting their rights have been studied.

Kalit so'zlar: Nogironlik, ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar, kar va zaif eshituvchi bolalar, logopediya, oligofren, aqli zaif bola, korreksion, harakat-tayanch, surdopedagogika, demensiya, pedagogika, psixologiya, artrogripoz, serebral, miopatiya, poliomielit, artrogripoz, axondroplaziya, xondrodistrofiya, mushak.

Nogironlik-bu insonning jismoniy, aqliy, psixologik yoki barchasida ma'lum cheklovlar mavjud bo'lishi natijasida hayot faoliyatini to'liq amalga oshirish qiyinlashadigan holatdir. Ushbu cheklovlar turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin va odatda bunday shaxslar o'z ehtiyojlarini qondirishda jamiyat tomonidan maxsus yordamga ehtiyoj sezadilar. Shuning uchun imkoniyati cheklangan insonlarni qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash har bir rivojlangan jamiyatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy huquqiy va ijtimoiy tamoyillarga muvofiq, nogiron atamasi eskirgan va salbiy ma'noga ega deb hisoblanmoqda. Bugungi kunda ushbu atamaning o'rniga "imkoniyati cheklangan shaxslar" degan ibora ishlatilmoqda, bu insonning imkoniyatlarini hurmat qilish,

ularni qadrli shaxs sifatida qabul qilish va jamiyatda teng huquqli a'zo sifatida e'tirof etishga qaratilgan.

Ushbu yondashuv inklyuziv ta'lim tamoyillari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, imkoniyati cheklangan shaxslarning ta'lim olish, kasb-hunar egallash va jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan maxsus yondashuv va metodikalarni qo'llash zarurati kundan-kunga ortib bormoqda.

Bugungi kunda davlat tomonidan bunday shaxslarning ta'lim olishlari uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qo'llab -quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar ko'rilmogda. Xususan, qonunchilik asosida imkoniyati cheklangan shaxslarning ta'lim olish huquqlarini ta'minlash, ularga mos o'quv dasturlarini ishlab chiqish va inklyuziv maktablar sonini ko'paytirish dolzarb masalalardan biri. Bolalar bir-biriga o'xshamaydi, chunki har bir bola o'ziga xosdir. Hatto ular bir xil yoshda bo'lsa ham, xarakter, qobiliyat va qiziqishlari jihatidan bir-biridan farq qiladi. Ba'zi bolalar injiq bo'lsa boshqalari xushchaqchaq, ba'zilari yaxshi kuylaydi, boshqalari esa ashula ayta olmaydi.

Ushbu xilma xillikni yana ko'plab jihatlar orqali davom ettirish mumkin. Bola dunyoga kelgan zahoti ko'rish, eshitish, sezish, hid bilish va ta'mni his qilish qobiliyatlariga ega bo'ladi. Uning tevarak-atrofnii bilib borishi sezish va idrok qilish jarayonlari orqali ro'y beradi. Bu jarayon bola ongida narsa va hodisalarning aks etishi bilan boshlanadi. Bolaning xoh ona qornida, xoh tug'ilganidan keyin rivojlanib borishi uchun zarur bo'lgan ma'lum shart-sharotlarning buzilishi turli xil anomaliyalarga, ya'ni jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlar, kamchiliklarga olib kelishi mumkin.

Korreksion pedagogika fanida imkoniyati cheklangan bolalarning turli xil toifalari ustida ish olib boriladi.

1.Eshitish kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar (kar, zaif eshituvchi bolalar, kech kar bo'lib qolgan bolalar);

2.Ko'rish qobiliyati zaif (ko'r, zaif ko'ruvchi bolalar);

3.Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar;

4.Nutqiy nuqsonlari bor bolalar;

5.Harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalar;

6.Ruhiy rivojlanishi sust bolalar;

7.Mujassam kompleks nuqsonli ko'r-kar-saqov bolalar;

8.Rivojlanishida murakkab ko'p nuqsonli bolalar;

9.Autizm sindromiga chalingan bolalar.

Imkoniyati cheklangan bolalar deganda, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishiga og'ir ta'sir ko'rsatadigan nuqsonlarga ega bolalar tushuniladi.

Agar bolaning muammosi uning umumiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasa, masalan faqat bitta qulog'i eshitmasa, lekin boshqa, u imkoniyati cheklanganlar toifasiga kirmaydi. Bunday bolalar uchun maxsus ta'lim sharoitlari

yaratilishi zarur, chunki ularning rivojlanishi va o'qishi uchun qo'shimcha yordam kerak bo'ladi. Ular ixtisoslashtirilgan muassasalarda yoki tengdoshlari bilan birga, maxsus dastur asosida ta'lim olishlari mumkin. Shuningdek, bolada kuzatiladigan kamchiliklar nerv sistemasidagi organik yoki funksional o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Bolaning nuqsonli rivojlanishiga tug'ma yoki turmushda orttirilgan sabablar ta'sir qilishi mumkin.

Tug'ma nuqsonlar ko'pincha onaning homiladorlik davridagi sog'lig'i, yashash sharoiti, genetik omillar va zararli odatlar bilan bog'liq bo'lsa, turmushda orttirilgan nuqsonlar bola tug'ilganidankeyin yuzaga keladigan zararli omillar bilan bog'liqdir. Mamlakatimizda bu muammoni kamaytirish uchun katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Profilaktika choralari, sog'lom turmush tarzi targ'iboti, homilador ayollarga tibbiy xizmat ko'rsatishning yaxshilanishi va yuqumli kasalliklarning oldini olish imkoniyati cheklangan bolalar sonining kamayishiga sabab bo'ladi

Misol uchun, yuqumli kasalliklarga qarshi ommaviy emlashlar orqali bolalarning sog'lom o'sishi uchun xavfsiz sharoitlar yaratilmoqda. Irsiy omillar hamda intoksikatsiya va organizm shakllanayotgan paytda bosh miya, analizatorlarning zararlanishiga olib boradigan boshqa sabablar tufayli bolaning imkoniyati cheklangan bo'lib qolish hollari ham uchrab turadi.

Ko'rish bolaning rivojlanishida muhim o'rin tutadi, undagi nuqsonlar ruhiy hamda jismoniy rivojlanishga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Tiflopedagogika fanida ko'rish qobiliyatiga qarab bolalar uch guruhga ajratiladi:

1. Ko'r va deyarli ko'r bolalar; Ko'rish o'tkirligi 0 dan 0.004 gacha. Ular o'quv materialini sezish va eshitish orqali o'zlashtiradi. Brayl alifbosi yordamida o'qish va yozishadi.

2. Zaif ko'ruvchi bolalar (og'ir); Ko'rish o'tkirligi ko'zoynak bilan 0.06 dan 0.09 gacha. Ko'rish maydoni toraygan yoki fazoviy idrok buzilgan bo'lishi mumkin, bu ta'limni qiyinlashtiradi. Maxsus sharoit va uskunalar talab qilinadi.

3. Zaif ko'ruvchi bolalar (yengil); Ko'rish o'tkirligi ko'zoynak bilan 0.1 dan 0.4 gacha. Bunday bolalar buyumlarni ko'rib idrok eta oladi, yozish va o'qishda ko'rishdan foydalana oladi. Ko'rish qobiliyati 0.05 dan 0.4 gacha bo'lgan zaif ko'ruvchi bolalar maxsus bog'cha va maktablarda ta'lim-tarbiya oladi. Bu muassasalarda ko'rish asosida o'qitish tashkil qilinadi, lekin qo'shimcha texnik vositalar (kattalashtiruvchi optik asboblar, yirik harflar bilan bosilgan kitoblar, maxsus yoritgichlar) qo'llaniladi. Asosiy maqsad: bolalarning qolgan ko'rish imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishni o'rgatish va rivojlantirish. Ko'rish qobiliyatini saqlab qolish uchun zarur shar-sharoitlar yaratish.

Ruhiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va ikkilamchi asoratlarni bartaraf etish. Mazkur maktabni bitirgan bolalar kasb-hunar egallashadi va jamiyatda o'z o'rinlarini topishadi. Ular yozuvchi, o'qituvchi, musiqachi kabi intellektual faoliyat turlarida muvaffaqiyatli ishlashlari mumkin. To'g'ri yondashuv va kompensator choralari orqali bunday bolalar hayotda to'laqonli rivojlanish imkoniga ega bo'ladi. Nutq

bolaning eshituv organlari orqali idrok qilinib, atrofdagilarga taqlid qilish orqali rivojlanadi. Og'zaki nutq shakllanishida eshituv analizatori va nutqni harakatga keltiruvchi analizator muhim rol o'ynaydi. Bu analizatorlar bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, eshituv analizatorining rivojlanishi talaffuzga bog'liq. Bola nutqi rivojlanishi tovushlar talaffuzi, fiziologik va fonematik eshitishning kamol topishi hamda so'zlarning tuzilishi va tovush tarkibini farqlash qobiliyati bilan belgilanadi. Bu qobiliyat grammatik va leksik rivojlanishda ham katta ahamiyatga ega. Shuningdek, matnda eshitish nuqsonlari bolalar rivojlanishiga qanday ta'sir qilishiga to'xtalib o'tilgan. Defektologlar ma'lumotlariga ko'ra, eshitish nuqsonining bolaning qaysi yoshida va qanchalik darajada paydo bo'lishi uning rivojlanishiga ta'sir qiladi. Eshitishda nuqsoni bor bolalar uch guruhga bo'linadi:

1. Kar bolalar-tug'ma yoki go'daklik davrida ikkala quloqning eshitmasligi kar-soqovlikka olib keladi.

2. Zaif eshituvchi bolalar-eshitish qobiliyatining qisman buzilishi natijasida nutqiy nuqsonlar paydo bo'ladi. 3. Keyinchalik zaif eshituvchi bolalar-nutqi rivojlanganidan keyin eshitish qobiliyatining yomonlashishi tufayli muammolar yuzaga keladi. Eshitish nuqsonlari tug'ma yoki hayot davomida orttirilgan bo'lishi mumkin. Quloqdagi nuqsonlar tufayli eshitish muammolari davom etsa ham, bolalar rivojlanishida o'ziga xos qiyinchiliklar saqlanib qoladi. Kar bolalarning 25-30 foizida eshitish nuqsonlari tug'ma bo'ladi. Surdopedagogikada eshitish qobiliyati zaif bo'lgan bolalar kar-soqov, tug'ma

Ko'rish bolaning rivojlanishida muhim o'rin tutadi, undagi nuqsonlar ruhiy hamda jismoniy rivojlanishga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Tiflopedagogika fanida ko'rish qobiliyatiga qarab bolalar uch guruhga ajratiladi:

1. Ko'r va deyarli ko'r bolalar; Ko'rish o'tkirligi 0 dan 0.004 gacha. Ular o'quv materialini sezish va eshitish orqali o'zlashtiradi. Brayl alifbosi yordamida o'qish va yozishadi.

2. Zaif ko'ruvchi bolalar (og'ir); Ko'rish o'tkirligi ko'zoynak bilan 0.06 dan 0.09 gacha. Ko'rish maydoni toraygan yoki fazoviy idrok buzilgan bo'lishi mumkin, bu ta'limni qiyinlashtiradi. Maxsus sharoit va uskunalar talab qilinadi.

3. Zaif ko'ruvchi bolalar (yengil); Ko'rish o'tkirligi ko'zoynak bilan 0.1 dan 0.4 gacha. Bunday bolalar buyumlarni ko'rib idrok eta oladi, yozish va o'qishda ko'rishdan foydalana oladi. Ko'rish qobiliyati 0.05 dan 0.4 gacha bo'lgan zaif ko'ruvchi bolalar maxsus bog'cha va maktablarda ta'lim-tarbiya oladi. Bu muassasalarda ko'rish asosida o'qitish tashkil qilinadi, lekin qo'shimcha texnik vositalar (kattalashtiruvchi optik asboblar, yirik harflar bilan bosilgan kitoblar, maxsus yoritgichlar) qo'llaniladi. Asosiy maqsad: bolalarning qolgan ko'rish imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishni o'rgatish va rivojlantirish. Ko'rish qobiliyatini saqlab qolish uchun zarur shar-sharoitlar yaratish. Ruhiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va ikkilamchi asoratlarni bartaraf etish. Mazkur maktabni bitirgan bolalar kasb-hunar egallashadi va jamiyatda o'z o'rinlarini topishadi. Ular yozuvchi, o'qituvchi, musiqachi kabi

intellektual faoliyat turlarida muvaffaqiyatli ishlashlari mumkin. To'g'ri yondashuv va kompensator choralari orqali bunday bolalar hayotda to'laqonli rivojlanish imkoniga ega bo'ladi. Nutq bolaning eshituv organlari orqali idrok qilinib, atrofdagilarga taqlid qilish orqali rivojlanadi. Og'zaki nutq shakllanishida eshituv analizatori va nutqni harakatga keltiruvchi analizator muhim rol o'ynaydi. Bu analizatorlar bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, eshituv analizatorining rivojlanishi talaffuzga bog'liq. Bola nutqi rivojlanishi tovushlar talaffuzi, fiziologik va fonematik eshitishning kamol topishi hamda so'zlarning tuzilishi va tovush tarkibini farqlash qobiliyati bilan belgilanadi. Bu qobiliyat grammatik va leksik rivojlanishda ham katta ahamiyatga ega. Shuningdek, matnda eshitish nuqsonlari bolalar rivojlanishiga qanday ta'sir qilishiga to'xtalib o'tilgan. Defektologlar ma'lumotlariga ko'ra, eshitish nuqsonining bolaning qaysi yoshida va qanchalik darajada paydo bo'lishi uning rivojlanishiga ta'sir qiladi. Eshitishda nuqsoni bor bolalar uch guruhga bo'linadi:

1. Kar bolalar-tug'ma yoki go'daklik davrida ikkala quloqning eshitmasligi kar-soqovlikka olib keladi.

2. Zaif eshituvchi bolalar-eshitish qobiliyatining qisman buzilishi natijasida nutqiy nuqsonlar paydo bo'ladi.

3. Keyinchalik zaif eshituvchi bolalar-nutqi rivojlanganidan keyin eshitish qobiliyatining yomonlashishi tufayli muammolar yuzaga keladi. Eshitish nuqsonlari tug'ma yoki hayot davomida orttirilgan bo'lishi mumkin. Quloqdagi nuqsonlar tufayli eshitish muammolari davom etsa ham, bolalar rivojlanishida o'ziga xos qiyinchiliklar saqlanib qoladi. Kar bolalarning 25-30 foizida eshitish nuqsonlari tug'ma bo'ladi. Surdopedagogikada eshitish qobiliyati zaif bo'lgan bolalar kar-soqov, tug'ma yoki keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalardan iborat. Zaif eshituvchi bolalar eshitish qobiliyatining buzilish darajasiga qarab uch guruhga bo'linadi: yengil, o'rta va og'ir darajali zaif eshituvchilar. 1. Yengil daraja: Ovoz bilan gapirilgan nutqni 6-8 metr masofada eshitadi. Shivirlab gapirilgan gapni esa quloq suprasidan 3-6 metr masofada eshitadi. 2. O'rta daraja: Ovoz chiqarib gapirilgan gapni 4-6 metr masofada eshitadi. Ovozsiz pichirlab gapirilgan gapni 1-3 metr masofada eshitadi. 3. Og'ir daraja: O'rta balandlikdagi ovoz bilan gapirilgan gapni quloq suprasidan 2 metr masofada eshitadi. Shivirlashni 0,5 metr masofada eshitadi.

Nutqdagi kamchiliklar: Zaif eshitish tufayli bolalarning nutqida bir qancha kamchiliklar kuzatiladi: Lug'at boyligi kambag'al bo'ladi. Grammatikani to'g'ri qo'llayolmaydi: gap ichida so'zlarni tashlab ketadi, so'zlarni noto'g'ri ishlatadi, ularni o'zaro bog'lay olmaydi. Kelishik, so'z yasovchi va o'zgartiruvchi qo'shimchalardan foydalana olmaydi.

Tovushlarni noto'g'ri talaffuz qiladi: o'xshash tovushlarni aralashtiradi, jarangli va jarangsiz tovushlarni bir-biri bilan adashtiradi yoki ba'zi tovushlarni tushirib yuboradi. Bunday bolalarning nutq rivojlanishidagi muammolarni hal qilish uchun maxsus pedagogik yondashuv va mashg'ulotlar talab etiladi. Kar va zaif

eshituvchi bolalar ta'limiga «Labdan o'qish» ko'nik-malarini shakllantirish va mustahkamlash mashg'ulotlari kiritilgan. Eshitishida muammosi

bo'lgan bolalar maxsus maktab-internatlarining barchasi ovoz kuchaytiruvchi apparatlar bilan ta'minlangan, xonalari maxsus tovush qaytarmaydigan qoplamalar bilan jihozlanadi, sog'lomlashtirish bo'yicha tadbirlarni maqsadli amalga oshirish uchun sharoitlar yaratilgan.

Bolaning intellektual yoki aqliy rivojlanishida turli nuqsonlar kuzatilishi mumkin. Ilgari bunday bolalar "aqli zaif" yoki "oligofren" deb atalgan. Oligofreniya atamasi yunoncha oligos ("kam", "oz") va fren ("aql") so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, aqliy zaiflikni anglatadi. Oligofren bolalar markaziy asab tizimining organik kasalliklari sababli bilish faoliyati pasayib ketganligi bilan boshqa bolalardan farq qiladi. Bugungi kunda insonni kamsitmaslik maqsadida bu atama kamroq qo'llanadi.

1. Aqlan zaiflik –yig'ma tushuncha bo'lib, bolalardagi aqliy rivojlanish qoloqligi sabablarini, patologik o'zgarishlarning darajasi va vaqtini o'z ichiga oladi.

2. Demensiya –bu atama aqliy pasayishning boshqa shakllarini ham anglatadi. Aqliy qoloqlikni belgilash mezonlari:

1. Klinik mezon: Aqliy qoloqlik markaziy asab tizimining qaysi organik kasalliklariga bog'liqligini aniqlaydi.

2. Psixologik mezon: Bilish faoliyatining turg'un buzilganligini, ya'ni bolada diqqat, xotira, fikrlash va boshqa intellektual jarayonlarning sustligini ko'rsatadi.

3. Pedagogik mezon: Bola o'quv dasturini o'zlashtira olmasligi, ya'ni bilim olishda sezilarli qiyinchiliklar bo'lishini ko'rsatadi.

Aqliy rivojlanishdagi qoloqlikni aniqlash va tushunish: Bu mezonlar yordamida bolalarning intellektual rivojlanish darajasi baholanadi va ularning maxsus ehtiyojlarini hisobga olib, pedagogik yordam ko'rsatiladi. Oligofren bolalar vaziyatni to'g'ri tushunishda va unga mos ravishda xatti-harakatlarini o'zgartirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular

o'z-o'ziga va atrofdagilarga nisbatan tanqidiy munosabatni kamroq darajada shakllantiradilar. Oligofren bolalar vaziyatni to'g'ri tushunishda va unga mos ravishda xatti-harakatlarini o'zgartirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular o'z-o'ziga va atrofdagilarga nisbatan tanqidiy munosabatni kamroq darajada shakllantiradilar. Kamchiliklarga qaramay:

Oligofren bolalar bilan to'g'ri tashkil etilgan maxsus ta'lim va tarbiya jarayonlari katta natijalarga olib keladi.

Defektologlar ularni: Mustaqil hayotga tayyorlash; Kasb-hunarga o'rgatish borasida katta muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar. Natijalar: Maxsus yordamchi maktablarda ta'lim olgan bolalar: Sanoat va qishloq xo'jalik sohasida; Maishiy xizmat sohasida mehnat qilib, jamiyatda o'z o'rnini topmoqdalar.

Oligofren bolalarni boshqa yordamga muhtoj bolalardan ajratib, o'z ehtiyojlariga mos maxsus ta'lim muassasalariga yo'naltirish. Ularni imkon qadar ertaroq maxsus ta'lim-tarbiya olishlarini ta'minlash. Bu ishlar bolalarning

imkoniyatlarini rivojlantirish va jamiyatda to'laqonli hayot kechirishiga yordam beradi.

Ulgurmovchi o'quvchilar orasida ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ham uchrab turadi. Bunday bolalarning bilish faoliyati, jumladan, intellekti, mantiqiy tafakkuri, idroki, xotirasi, ixtiyoriy diqqat va ish qobiliyati zaiflashgan bo'ladi. Ushbu holatlarning asosiy sababi markaziy asab tizimi kasalliklari natijasida ruhiy rivojlanishning sustlashuvidir. Hissiyot va iroda sohasidagi nuqsonlar asosiy (birlamchi) hisoblanadi.

Aqliy zaiflik esa ikkilamchi hodisa sifatida yuzaga keladi. Bunday bolalarga maxsus pedagogik va psixologik yordam ko'rsatish, ularning ehtiyojlarini inobatga olib, rivojlanish imkoniyatlarini yaxshilash muhimdir.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan inkluziv sharoit me'yorda rivojlangan, sog'lom tengdoshlari orasida yoki maxsus muassasalarda davolab, himoya etish va ruhiy faoliyatnirostlashni ko'zlab alohida ta'lim-tarbiya ishlari olib boriladi. O'z vaqtida va to'g'ri tashkil etilgan yordam tufayli ushbu toifadagi alohida yordamga muhtoj bolalar keyinchalik yaxshi rivojlanib ketib, maktabni bitirgach, oliy o'quv yurtlarida ham muvaffaqiyatli ta'lim oladilar.

Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar aniqlanib, ularga maxsus yordam ko'rsatilmoqda. Ushbu bolalarning ko'pchiligiga nogironlik aravachalari olib berilganligi sababli, ular bog'cha va maktablarga qatnash imkoniga ega bo'lishgan. Bunday bolalarning asosiy muammolari:

1. Serebral falaj –markaziy asab tizimining shikastlanishi natijasida harakat va mushak tonusining buzilishi.

2. Poliomielit –shol kasalligining asoratlari natijasida harakat cheklanishi.

3. Tug'ma va orttirilgan deformatsiyalar: Artrogripoz –bo'g'imlarning tug'ma qotishi yoki deformatsiyasi. Axondroplaziya yoki xondrodistrofiya –tana, bo'yin, va bosh normal rivojlangan holda, tug'ma suyak o'sishining orqada qolishi.

4. Miopatiya –mushak to'qimalaridagi modda almashinuvining irsiy buzilishi natijasida mushaklar qisqarish qobiliyatini yo'qotadi, bu esa qo'l-oyoq harakatini cheklaydi.

Ushbu bolalar maxsus e'tibor va yordamga muhtoj. Tibbiy, pedagogik va texnik yordam orqali ularning hayot sifatini yaxshilash va ta'lim jarayoniga jalb qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Ularga hozirgi kunda juda ko'plab yordamlar berilmoqda bog'chaga yoki maktabga borib kelishlari uchun maxsus aravachalar sovg'a qilib berilmoqda. Sog'liqlarini tiklagach tibbiy-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan o'quvchilarni umum-ta'lim bog'cha yoki maktabiga o'tkaziladi. Maxsus maktab-internat pedagogik kengashi bitiruvchilariga ishga joylashish uchun tavsiyanoma beradi. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar I-II guruh nogironlari hisoblanib, ularni ishga joylashtirish ijtimoiy ta'minot bo'limlariga topshiriladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus e'tibor va qo'llab-quvvatlash nafaqat davlat siyosatining, balki jamiyatning insonparvarlik majburiyatidir. Ushbu bolalar uchun ta'lim va tarbiya olish imkoniyatlarini kengaytirish, ularga mos muhit yaratish va ijtimoiy integratsiyani ta'minlash jamiyat rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda imkoniyati cheklangan bolalarning huquqlari xalqaro va milliy huquqiy hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgan bo'lsa-da, amaliyotda ko'plab muammolar saqlanib qolmoqda. Bunga ta'lim muassasalarida maxsus sharoitlarning yetarli emasligi, kadrlar tanqisligi va resurslarning cheklanganligi kiradi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish muhimdir, chunki bunday yondashuv orqali imkoniyati cheklangan bolalar sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, bu bolalarning jamiyatga integratsiya qilinishi uchun ularning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish va o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga yo'naltirilgan dasturlarni ishlab chiqish zarur.

Hukumat, nodavlat tashkilotlar va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari yordamida imkoniyati cheklangan bolalar uchun to'laqonli hayot sharoitlarini ta'minlash mumkin. Qisqacha aytganda, har bir bola, imkoniyatidan qat'i nazar, teng huquqlar va imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak. Bunday bolalarga g'amxo'rlik qilish va ularni qo'llab-quvvatlash nafaqat jamiyat taraqqiyoti, balki insoniylikning yuksak namunasi hisoblanadi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. R. Sh. Shomaxmudova. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma. Toshkent-2011 yil.
2. D.S.Qaxarova "Inklyuziv ta'lim texnologiyasi" Toshkent. 2014
- 3.L.R.Muminova, R.Sh.Shomaxmudova, Z.M.Axmedova. "Inklyuziv ta'lim" o'quv qo'llanma. Тошкент,2019.
4. Respublikaning yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (2023-yil 23-sentyabr qabul qilingan).
5. O'zbekiston Respublikasi taraqqiyot strategiyasi asosida 18-ini qit'a davom ettiramiz // «Xalq so'zi» gazetasi, 2023-yil.
- 6.O'zbekiston Respublikasining qonuni "Maxsus ta'limga muhtoj bolalar huquqlari to'g'risida" 2020-yil 15-oktabr.
7. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Maxsus ta'limga muhtoj bolalar huquqlari to'g'risida" 2021-yil 7-iyun.
8. Respublika Prezidentining qarori "Alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalarga ta'lim olishga yordam berish tizimini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida" 2020-yil.

9. Respublika Prezidentining farmoni "Maxsus ta'lim ehtiyojlariga muvofiq keladigan ta'lim tizimini rivojlantirish" 2003-yil 30-aprel.